



## Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi



### Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1354,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi. Bu 2017yilning mos davriga nisbatan 10,9%ga o'sishni ta'minladi.

#### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi


2018 yil yanvar-sentabr oylari (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Surxondaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1354,2</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	1892,5
Qurilish	2307,3
Savdo	1684,2
Tashish va saqlash	1974,9
Axborot va aloqa	1832,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2514,3
Ta'lim	1251,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	994,0
Boshqa faoliyat turlari	1299,7



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Termiz shahrida **1713,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **126,5** %), Jarqo'rg'on tumanida **1655,8** ming so'mni (**122,3** %) va Sariosiyo tumanida **1402,8** ming so'mni (**103,6** %) tashkil etgan bo'lsa, Sho'rchi tumanida **1106,2** ming so'mni (**81,7** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqi. (shahar va tumanlar kesimida)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **456.3 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.